

XALQ OG'ZAKI IJODI, TURLARI VA QADRIYAT SIFATIDA TUTGAN O'RNI

Matjanova Nodira Xojaxmetovna

CHDPU O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi 1-bosqich talabasi

Ilmiy rahbari: Nafisa Rahmonova

Annotatsiya. *Maqolada xalq og'zaki ijodining mazmun-mohiyati, uning turlari va tarbiyaviy ahamiyati haqida fikr yuritilgan. Xalq ijodining afsonalar, ertaklar, maqollar, topishmoqlar, dostonlar va laparlar, masallar kabi turlari xalqning dunyoqarashi, axloqiy qarashlari va ma'naviy boyligini ifodalaydi. Xalq og'zaki ijodi xalq ruhiyati, tarixi va hayotiy tajribasining aksidir. Uni asrash va yosh avlodga yetkazish bugungi kunning muhim vazifalaridan biri sifatida ta'kidlanadi.*

Kalit so'zlar. *Ertak, doston, maqol, topishmoq, lapar, matal, ma'naviyat, tarbiya.*

Аннотация: *В статье рассматриваются сущность устного народного творчества, его виды и воспитательное значение. Такие жанры народного творчества, как легенды, сказки, пословицы, загадки, дастаны, лапары и басни, отражают мировоззрение народа, его нравственные взгляды и духовное богатство. Устное народное творчество является отражением духовности, истории и жизненного опыта народа. Подчеркивается важность сохранения и передачи этого наследия молодому поколению.*

Ключевые слова: *сказка, дастан, пословица, загадка, лапар, басня, духовность, воспитание.*

Annotation: *The article discusses the essence of folk oral creativity, its types, and its educational significance. Genres such as legends, fairy tales, proverbs, riddles, epics, songs, and fables reflect the worldview, moral values, and spiritual wealth of the people. Folk oral creativity is a reflection of the nation's spirit, history, and life experience. The importance of preserving and passing this heritage to the younger generation is emphasized.*

Keywords: *fairy tale, epic, proverb, riddle, song, fable, spirituality, education.*

Xalqimizning og'zaki ijodining tarixiy ildizlari Markaziy Osiyoda yashab o'tgan turk xalqlarning mifik dunyo qarashiga borib taqaladi[1]. Afsona, rivoyat, lof, latifa, maqol, topishmoq, ertak, doston, qo'shiq, assiya, og'zaki drama va boshqalarlar xalq og'zaki badiiy ijodining asosiy janrlari bo'lib, ular so'z san'ati namunalari bo'lish bilan birga muayyan ijtimoiymaishiy funksiyalarni ham ado etadilar. Mas, ho'p mayda, ho'sho'sh,

tureytüre, chureychüre kabi qo‘shiq turlari mehnat jarayonlariga aloqador bo‘lsa, yoryor, o‘lan, lapar, kelin salom, yig‘iyo‘qlov, badik, suyet xotin singarilar har xil marosimlar bilan bog‘liqdir. Xalq og‘zaki ijodi - xalq ommasining badiiy, ijodiy-amaliy va havaskorlik faoliyati, an‘anaviy moddiy va nomoddiy madaniyatning xalq og‘zaki badiiy ijodi *folklor*, xalq musiqasi *musiq* *folklori*, xalq teatri *tomosha san‘ati*, xalq o‘yinlari *raqs*, qo‘g‘irchoqbozlik, dor va yog‘och oyoq o‘yinlari *xalq sirki*, xalq tasviriy va amaliy bezak san‘ati hamda texnikaviy va badiiy havaskorlik kabi ijodiyot turlari. Yaratilishi va ijodiy jarayonida ko‘pchilikning ishtiroki bo‘lgan Xalq ijodi ning turlari xalq turmush tarzi, yashash sharoitlari, ijtimoiy mehnat darajasiga moye ravishda shakllanib, avloddanavlodga, ustozdan shogirdga o‘tib, doimiy ravishda mukammallashib, sayqallashib, tobora an‘anaviylashib borgan va nihoyat, kasbiylik (professionallik) xususiyatiga ega bo‘lgan, jonli ijro sharoitlari va kundalik amaliyotda bizgacha yetib kelgan. Shuningdek, Xalq ijodining bir qator namunalari yozma manbalarda, tarixchi va yozuvchilarning asarlarida, qoyatoshlarda *Sarmishsoy*, *Zarautsoy* rasmlari kabi, arxeologiya va arxitektura yodgorliklarida, uyro‘zg‘or buyumlarida saqlanib kelgan.

Bugungi jadallashib borayotgan zamonda yoshlarga tarbiya sifatida, pedagogik jarayonda xalq og‘zaki ijodini yaqaaol namuna sifatika aytsak bo‘ladi, O‘zbek olimi M. Haydarov yozishicha: [2] “Xalq og‘zaki ijodi namunalaridagi odobaxloq, ta‘lim-tarbiya borasidagi pandnomalar bag‘oyat hayotiy, xalqchil va ibratlidir. Xususan an‘anaviy xalq dostonlari va ertaklari, qo‘shiqalar va maqollar tarbiya darslari ekanligini, folklorning boshqa katta-kichik janrlari boshdan-oyoq pandnomaligini unutmasligimiz kerak”. Misol uchun xalqimizning Shiroq va To‘maris, Spitamen va Muqanna, Temur Malik va Jaloliddin Manguberdi, Amir Temur va Bobur Mirzo kabi mard farzandlari-buyuk g‘oya sohiblaridir. To‘marisning jasorati va harbiysiyosiy faoliyati to‘g‘risida xalq dostonlari yaratildi, jangnoma va rivoyatlar to‘qilgan, yozuvchi Mirkarim Osim „To‘maris“ qissasida uning jasoratini ulug‘laydi. Xalq og‘zaki ijodi namunalaridan foydalanish orqali ularni milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalash – pedagogikada dolzarb masalalar sirasiga kiradi.

Doston, poema -liro-epik janr, shu janrdagi badiiy asar. O‘zbek xalq og‘zaki ijodi va o‘zbek mumtoz adabiyotida keng tarqalgan. Dostonda muayyan voqea liro-epik tasvir vositalari yordamida hikoya qilinadi. Unda hayot, voqelik keng ko‘lamda qamrab olinadi, bir yoki ikkita bosh qahramon ishtirok etadi, personajlar esa ko‘p bo‘ladi. Syujeti sertarmoq, rang-barang.

Afsona- xalq og‘zaki ijodi (folklor) janri. U xayolot, uydirma va to‘qimadan iborat bo‘lsada, so‘zlovchi va tinglovchi tomonidan haqiqatdek tasav-vur etiladi, hatto bo‘lib o‘tgan davri, makon ham ko‘rsatiladi. Afsonalar og‘izdan-og‘izga, eldan-elga o‘tib kelgan, ifoda usuli bayon tarzida. Afsonalar og‘zaki hikoyat bo‘lib, u xayoliy obraz yoki tasavvur

asosiga quriladi, hikoya qiluvchilar va tinglovchilar tomonidan qachonlardir shunday bo‘lgandek qabul qilinadi.

Maqol- xalq og‘zaki ijodi janri; qisqa va lo‘nda, obrazli va obrasiz, grammatik va mantiqiy tugallangan ma’noli hikmatli ibora, chuqur mazmunli. Muayyan aniq shaklga ega. Maqollarda avlod- ajdodlarning hayotiy tajribalari, jamiyatga munosabati, tarixi, ruhiy holati, etik va estetik tuyg‘ulari, ijobiy fazilatlarini mujassamlashgan. Asrlar mobaynida xalq orasida sayqallanib, ixcham va sodda poetik shaklga kelgan[3].

Tez aytish -xalq og‘zaki ijodining bir turi, *G‘ani g‘ildirakni g‘izillatib g‘iltiratdi ,Oq choynakka ko‘k qopqoq, ko‘k choynakka oq qopqoq* .Tez aytishda yanglishib ketish mumkin bo‘lgan qofiyadosh so‘zlardan tuzilgan jumlar qo‘llanadi. Unda muayyan tovushlar, ayniqsa, jarangli undoshlar takrorlanadi va so‘zlar ritm, urg‘ular bilan tez aytiladi.

Masal (*arab tilida namuna, misol*) - didaktik adabiyot janri. Ta’limiy harakterdagi, aksariyat kichik she’riy, ba’zan nasriy shakldagi asar.Masalda insonga xos xususiyatlar, jamiyatga xos ijtimoiy hodisalar, munosabatlar qushlar, hayvonlar orasidagi munosabatlar va tabiat hodisalari vositasida aks ettiriladi. Xalq og‘zaki ijodi keng talqin qilinadigan milliyqadriyatlarinsonparvarlik,bag‘rikenglik, vatanparvarlik, mehmondo‘stlik, ahillik, to‘g‘riso‘zlik va boshqalar o‘zbek xalqi qadriyatlarining nozik kurtaklari bo‘lib hisoblanadi.Ularni xalqimiz asrlar osha avaylab- asrab kelmoqda. Mamlakatimizning kuch-qudrati manbai ham uning milliy qadriyatlarga sodiqligidadir. Insonparvarlik-bu o‘zbek halqi milliy ruhiyatining ajralmas fazilatidir. Folklorshunos olim S.Turayev ta’kidlashicha: “Xalq og‘zaki ijodida hayotning, tafakkurning, odob-axloq, ta’lim-tarbiyaning hamma jabhasini, barcha muammolarini qamrab olishi bilan xarakterlanadi”[4]. Darhaqiqat, xalq og‘zaki ijodida inson qadr-qimmatini va sha’nini ulug‘lovchi, ma’naviy kamolotini belgilovchi omillar, iymon-e’tiqodining butunligi, vatanparvarlik, do‘st-birodarlik, yaxshilik, ezgulik, ahillik sahifalari rangbarangdir.

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, xalq og‘zaki ijodi –o‘zbek xalqining asrlar davomida shakllangan, hayotiy tajriba va ma’naviy boyligini mujassam etgan bebaho xazinadir. U xalqning axloqiy qarashlari, dunyoqarashi, ijtimoiy hayoti va tarixiy xotirasini ifodalaydi. Afsona, ertak, maqol, doston, topishmoq, masal, qo‘shiq va boshqa janrlar orqali xalq o‘z orzu-umidlari, o‘gitlari, hayotga bo‘lgan munosabatini avlodlardan-avlodga yetkazib kelgan. Bugungi kunda xalq og‘zaki ijodining tarbiyaviy, estetik va ma’naviy ahamiyati yanada ortib, u pedagogik jarayonning muhim vositasiga aylanmoqda. Milliy qadriyatlarimizni asrash, yosh avlodni ana shunday ibratli meros ruhida tarbiyalash - jamiyatimiz oldidagi dolzarb vazifalardan biridir. Shu bois, xalq og‘zaki ijodi nafaqat

o,tmish yodgorligi, balki bugungi kun va kelajak tarbiyasining ham muhim asoslaridan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. “O‘zbekistonda xalq og‘zaki ijodining ahamiyati. Vaziraxon Mahmudjonova.
2. M.Haydarov.2004 “Xalq og‘zaki ijodi na‘munalarida tarbiya masalalari”.
3. <https://uz.wikipedia.org/wiki/Maqol>
4. To‘rayev S. “Folklorshunoslik: udumlar, qadriyatlar, marosimlar”, 2005.
5. <https://uz.wikipedia.org/wiki/Maqol>